



## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OTMLARNING INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

*Nazarov Orif Kasimjanovich  
Osiyo xalqaro universiteti magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimiz hayotida dolzarb hisoblangan, echimini topishga qaratilgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar, xorij tajribasi haqida tavsiyalar berishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, zamonaviy axborot texnologiyalari, tadbirkorlik, boshqaruv, strategiya, oliy ta‘lim, innovatsiya, virtual muhit.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davrida bo‘lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga butunlay o‘tishi atiga bir necha yilni tashkil etadi. Raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, turli mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida raqamli texnologiyalarning tatbiq etish sur‘atlarining turlichaligi, ular o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunga kelib, dunyoda «raqamli iqtisodiyot»ning o‘shish sur‘atlari deyarli 15,5 foizni tashkil etmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 2022-yil yakuniga kelib, global YaIMning chorak qismi raqamli sohada bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Bunday sharoitda O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o‘rinni egallab turganini inobatga olsak, hali mamlakatimizda bu sohada o‘z yechimini kutayotgan masalalar va hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar ko‘pligini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Birinchi, raqamli iqtisodiyot - bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne‘matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi, raqamli iqtisodiyot - bu o‘ziga xos tushuncha bo‘lib, uning o‘rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot odatda, raqamli hisoblash texnologiyalari va IT asosida amalga oshiriladigan infratuzilma hamda aloqa tizimi bo‘lib, barcha iqtisodiy jarayonlarni qamrab oladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, quyidagi mezonlar asosida belgilanadi: -raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi; -axborot kommunikatsiya texnologiyalari tarmog‘iga kiritilgan investitsiyalar hajmi; -elektron tijoratning rivojlanganligi; -mamlakat xududining internet bilan ta‘minlanish darajasi, aholining undan foydalanish qulayligi va internetning tezligi; -tashkilotlarda AKT sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassislar bilan ta‘minlanganligi. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish



O'zbekiston uchunnafaqat vaqtni tejash, balkiishlab chiqarish intensivligi va samaradorligini oshirish uchunhamzarur. Qolaversa, raqamli iqtisodiyot xufyona iqtisodiyot darajasini va ma'muriy buyruqbozlikni pasaytirib, tadbirkorlik sub'yeklari uchun katta qulayliklar yaratadi. O'z navbatida bu bandlik sektoriga ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, kelajakda quyidagi kasblar paydo bo'lishi mumkinligi, tadbirkorlik faoliyatining yangi ko'rinishlarini paydo bo'lishiga, raqamli transformatsiyaning jadallashuviga olib keladi: -shaxsiy marka menejeri; -virtual advokat; -hokimiyat vakillari bilan muloqot platformasining moderatori; -infostilchi; -raqamli lingvist; -muddatli broker; -interfeys uslubchisi kabilar. Shu o'rinda aytish joizki, hozirgi kunda "raqamli iqtisodiyot" atamasi bilan bir qatorda lug'atimizda "raqamli transformatsiya" atamasi ham tez-tez qo'llanilmoqda. Raqamli transformatsiya (digital transformation) jarayoni deb, raqamli texnologiyalarni mavjud biznes-modellarni mukammallashtirish uchun ishlatishga hamda uning vositasida faoliyat samaradorligini oshirishga aytiladi. Bu jarayon doimiy asosda innovasion texnologiyalarni tadbiriq qilishni ko'zda tutib, butun iqtisodiyotning to'laqonli raqamli transformatsiyasiga olib keladi. [2]Raqamli transformatsiya keng ma'noda raqamli texnologiyalardan foydalanishish asosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning sifat jihatidan yangi darajasiga o'tish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ya'ni, sodda qilib aytganda, raqamli transformatsiya bu korxonona yoki tadbirkorlik faoliyatining hozirgi holatidan "moslashuvchan" holatga o'tish jarayonidir. Raqamli transformatsiya ob'yektlari sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida yaratilgan mahsulotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq jarayonlar, faoliyati raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan odamlar va tizimlar alohida ajralib turadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxononalariningbutun ish siklini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'iladi, jumladan, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, platforma yechimlariga o'tish, sun'iy intellektni joriy etish va shu kabi o'zgarishlar korxonona rahbari oldiga jiddiy vazifalar qo'yadi. Hoh u davlat korxononasi bo'lsin, hoh xususiy tadbirkorlik faoliyati bo'lsin, raqamlashtirish sharoitida o'z faoliyatini davom ettirishi va rivojlanishi uchun, boshqaruv faoliyatida raqamli transformatsiyalashuvni bosqichma bosqich amalga oshirishi zarur bo'ladi. Davlat va jamiyat hayot tarziga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi natijasida, korxonona boshqaruvidayuzaga keladigan o'zgarishlarquyidagiyo'nalishlarda bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot - bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3D-texnologiyalari singari raqamli



texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko‘prog‘ida beqiyos o‘zgarishlar keltirib chiqarishi ta’kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko‘payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o‘rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi.

Dunyoda raqamli iqtisodiyot o‘shining sur‘atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o‘zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko‘rishmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.2020-yil 24-yanvar
2. S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. T.: TMI, Iqtisod-Moliya nashriyoti, 2020, 510 b.
3. Saidaxmedova D.S. O‘zbekistonda startaplarni rivojlantirish istiqbollari. "ToshDTU xabarlari", No3, 2018 y, 229-235 b.
4. D.S. Saidaxmedova, M. Xoshimova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishga ta’sir etuvchi omillar. “COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES” jurnal, 2022, 124-128 b